

**BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI  
BAHOLASH TA'RTIBI**

*Hasanov Husinboy Xudayberganovich*  
*O'zbekistonda Respublikasi bank moliya*  
*akademiyasi tinglovchisi*  
*Tel: +998941123841*  
*Email: [khusinboyh@mail.ru](mailto:khusinboyh@mail.ru)*

Davlat budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, davlat sektorida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish hamda budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish qoidalarni taminlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti "tovar-moddiy zaxiralar" tashkil qilindi. Bu standart O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 14-yanvarda 3120-son bilan ro'yxatga olingan, 2018-yil 12-dekabrda 151-sonli O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'idir<sup>1</sup>.

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar ikki xil qiymatda baholanadi. Ular o'z navbatida tannarx hamda realizatsiya qilishning sof qiymatlari asosida baholanadi, Ammo ikki xil holatda quyida keltirib o'tilgan bundan mustasno hisoblanadi:

– Almashuv operatsiyasi amalga oshirilmasdan xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar ularning sotib olish kunidagi haqiqiy qiymati bilan baholanishi;

– Tovar-moddiy zaxiralar beg'araz yoki nominal qiymat bo'yicha berish yoki mahsulot ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan bo'lsa, ular tannarxi va joriy tiklanish qiymatlariga nisbatan eng kichik qiymatda baholanishi;

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga boshqa qo'shimcha xarajatlar o'z ichiga kiradi, ya'ni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish, qayta ishlash hamda joriy holatiga keltirish uchun ketgan xarajatlarni aytish mumkin. Xarid qilish bilan bo'g'lik xarajatlarni quyida ko'rsatib o'tigan:

-ularni xarid qiymati;

-bojxona bojlari va boshqa soliqlar;

-transport-tayyorlov xarajatlari va ularni sotib olish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlarni o'z ichiga iladi. Ammo savdo chegirmalari, qaytarilgan to'lovlar va boshqa shu kabi holatlar hisobga olinmaydi.

Budjet tashkilotni Inventarizatsiya o'tkazish natijasida aniqlangan ortiqcha yoki olin tashkilot balansida hisobda aks etmagan tovar-moddiy zaxiralarni baholash ular aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (7-sonli BHS) "Tovar-moddiy zaxiralar"

Tashkilotda tovar-moddiy zaxiralarni qayta ishlash xarajatlari mahsulot qiymati bilan bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlarni o‘z ichiga oladi (masalan, mehnat xarajatlari). Shuningdek, ularga tayyor mahsulot xomashyosining qayta ishlash jarayonidagi doimiy va o‘zgaruvchan qo‘shimcha ishlab chiqarish xarajatlarining tizimli taqsimoti kiradi. Doimiy qo‘shimcha ishlab chiqarish xarajatlariga ishlab chiqarish ko‘lamidan qat’i nazar o‘zgarmaydigan bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya, bino va jihozlarga xizmat ko‘rsatish hamda ma‘muriy boshqaruv xarajatlari kiradi. O‘zgaruvchan qo‘shimcha ishlab chiqarish xarajatlariga ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan xarajatlari kiradi.

Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bo‘yicha ko‘rib o‘tsak, ularning tovar-moddiy zaxiralari ishlab chiqarish qiymati bo‘yicha baholanadi. Shu tannarx asosan xizmat ko‘rsatishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etuvchi xodimlar, shuningdek nazorat qiluvchi xodimlarning ish haqi xarajatlarini hamda qo‘shimcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Biroq, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan ish haqi hisobga olinmaydi. Sotish va umumiy ma‘muriyot bilan bog‘liq ish haqi va boshqa xarajatlari tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga qo‘shilmaydi, balki o‘sha davrdagi xarajatlari hisoblanadi.

Odatda tovar-moddiy zaxiralar tannarxini hisoblash juda ko‘p tarqalgan quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- maxsus identifikatsiya usuli;
- AVECO (o‘rtacha qiymat) usuli;
- zaxiralarni dastlabki kiritish narxlarida baholash -FIFO usuli

Tovar-moddiy zaxiralarning bir-birining o‘rnini bosmaydigan alohida moddalarining tannarxi, shuningdek maxsus loyihalar uchun mo‘ljallangan va ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatlar xarajatlarining maxsus identifikatsiya yo‘li bilan aniqlanishi kerak. Xarajatlarning maxsus identifikatsiyasi bu maxsus xarajatlari ularning aniq belgilangan moddalariga taalluqliligini bildiradi. Bu usullarni batafsilroq ko‘rib chiqish maqsadida quyida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanamiz: maxsus identifikatsiyalash usuli - katta qiymatlarga ega bo‘lgan avtomobil yoki og‘ir mashina-texnika sanoati uskunalari, mahsulotlarini sotib olish yoki sotishda foydalanishi mumkin.

O‘rtacha qiymat usulidan foydalanilsa, moddiy zaxiralarning qiymati - bu hisobot davri boshiga mavjud bo‘lgan tovarlar o‘rtacha qiymati plus joriy davrda olingan barcha tovarlardir. O‘rtacha qiymat tovarlarning jami qiymatini tovar birligiga nisbati hisoblanadi. Natijada hisobot davri oxiriga moddiy zaxiralarning o‘rtacha qiymatini chiqaramiz.

FIFO usuli bo‘yicha ta‘rif berib o‘tilsa, birinchi sotib olingan tovar-moddiy boyliklar birinchi sotilishi hamda shu asosida davr oxirida qolgan tovar-moddiy boyliklar yaqinda xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan TMZni anglatadi. Uni odiyroq qilib ayadigan bo‘lsa, FIFO “birinchi kirituvchi, birinchi chiqadi” qoidasiga ko‘ra

qiymatlarni o‘chirishni o‘z ichiga oladi, ya’ni tovar-moddiy zaxiralar xarid qilingan tartibda narx bo‘yicha hisobdan chiqariladi. Boshqacha qilib yozganda tovar-moddiy zaxiralarni dastlabki kirim narxlarida baholash usuli (FIFO) - birinchi navbatda sotib olingan tovarlar tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlar narxiga o‘tkazilishi kerak degan fikrga asoslangan. Hisobot davrining oxiriga qoldiq bo‘lib qolgan tovarlar tannarxi oxirgi sotib olingan tovarlar narxiga kiritiladi, sotilgan tovarlar tannarxi oldinroq sotib olingan tovarlar narxiga kiritilishi kerak. FIFO usulidan barcha tashkilotlar foydalanishi mumkin, chunki bu usulda tovarlar miqdorini harakati emas, balki qiymat harakati hisobga olinadi.

